



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN: YER RESURSLARINI BOSHQARISH

MAVZU

04

SUV XO'JALIGI YERLARIDAN FOYDALDNISH



RO'ZIBOYEV S.B.

.

**Yer resurslarini boshqarish
kafedrası dotsenti, PhD**




Reja:

- 1. O'zbekistonda suv muammosining o'ziga xosligi va murabkablighi.**
- 2. Suv-sug'orma dehqonchilikda asosiy ishlab chiqarish vositasi.**
- 3. Suv to'g'risidagi qonun xujjatlar**


.

- Respublikada ishlatiladigan suvning o‘rtacha 80 foizi qo‘shni davlatlar hududida shakllanadi;
- Sug‘oriladigan maydonlarning qariyb 70 foizi nasoslar yordamida suv bilan ta‘minlanadi;
- Suv xo‘jaligi majmuasiga har yili 836 mlrd so‘mdan ortiq budget mablag‘lari ajratiladi (ekspluatatsion xarajatlar), shundan 551,7 mlrd. so‘m elektr energiya xarajatlari 123,7 mlrd so‘m ish haqqini, 160,6 mlrd so‘m majburiy to‘lovlar va boshqalarni tashkil etadi;
- Qo‘shni mamlakatlar hududida joylashgan katta ahamiyatga ega bo‘lgan yirik suv xo‘jaligi inshootlarining joyi uchun ijara to‘lovi (har yili 15 mln AQSh dollariga yaqin miqdorida);


Aral Sea Basin



Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi




Сирдарё хавзасида истеъмол қилинадиган сув ресурслари



■ Ўзбекистон ■ Қирғизистон ■ Қозоғистон
■ Тожикистон ■ Жами

Suv boshqaruvi Davlatlararo suv boshqaruvining tuzilmasi



SUV QISHLOQ XO‘JALIGIDA ASOSIY ISHLAB CHIQRISH VOSITASI

Sug‘orma dehqonchilikda suv yer bilan birga ishlab chiqarish jarayonining ichki elementi bo‘lib, tabiiy moddiy ishlab chiqarish kuchlarining bo‘lagi hisoblanadi. Shuning uchun ham u yer bilan birgalikda sug‘orma dehqonchilikda asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Lekin shuni qayd qilish zarurki, u ishlab chiqarish jarayonida qatnashguncha, o‘z tabiiy xavzasida tabiat mahsulidir. Tabiiy xavzasidan olinib, qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish uchun yetkazib berilgan suv ishlab chiqarish vositasiga aylanadi. U tuproq unumdorligidan to‘la foydalanishga imkoniyat yaratadigan mehnat quroli sifatida xizmat qila boshlaydi.

**Suv bilan
fanlarning o‘zaro
bog‘liqligi**

Yer tuzishni loyihalash - sug‘orish inshootlari uchun yer ajratish, sug‘orish tarmoqlarini, suv xo‘jalik va boshqa injenerlik inshootlarni joylashtirish

O‘rmon tuzish asoslari va ixota daraxtlari polosalarini loyihalash- Suv eroziyasi, sel oqimlari xavfini to‘htatish..,

Melioratsiya va yer rekultivatsiyasi -Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash, Sug‘rorishning tejamli usullari..,

Yer xuquqi - Suv fondi yerlarini xuquqiy xolati

SUV VA SUVDAN FOYDALANISH TO‘G‘RISIDA QONUNI

- **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUV VA SUVDAN FOYDALANISH TO‘G‘RISIDA QONUNI 1993 YIL 6 MAYDA QABUL AILINGAN BULIB 29 BOB VA 119 TA MODDADAN IBORAT. USHBU QONUNNING I-BOB 1-MODDASIDA MAQSADI VA VAZIFALAR KELTIRILGAN.**

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va asosiy vazifalari

Ushbu Qonunning maqsadi suvga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvlarning zararli ta'sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

21-modda. **Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

yer osti suvlari — yer sathidan pastda yer qobig'ining tog' jinslari qatlamlarida joylashgan suvlar;

er usti suvlari — yer qobig'ining ustida joylashgan suvlar;

melioratsiya obyektlari — kollektor-drenaj va yer usti tashlama suvlarini to'plash hamda ularni sug'oriladigan yerlardan tashqariga chiqarib tashlashga ko'maklashadigan, kollektorlarni va kollektor-drenaj tarmog'ini, vertikal drenaj quduqlarini, melioratsiya nasos stansiyalarini (agregatlarini) va kuzatuv tarmog'ini o'z ichiga oladigan suv xo'jaligi obyektlari;

suvlar — suv obyektlarida to'plangan barcha suvlar majmui;

suv iste'moli (suvni iste'mol qilish) — yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv obyektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish;

suv iste'molchilari uyushmasi — yuridik shaxs bo'lgan suv iste'molchilari tomonidan suvga doir munosabatlar sohasidagi o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti;

suv yetkazib berganlik va boshqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun haq to'lash — suv ta'minoti tashkilotlari (suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv iste'molchilari uyushmalari va boshqalar) tomonidan ko'rsatiladigan suv yetkazib berish bo'yicha xizmatlar va boshqa suv xo'jaligi xizmatlari (suv xo'jaligi obyektlarini ta'mirlash, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish, suvni boshqarish va hisobga olish vositalaridan foydalanishda ko'maklashish) uchun shartnoma asosida to'lovlarni amalga oshirish;

transchegaraviy suv obyektlari — ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan suv obyektlari;

transchegaraviy suvlar — ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday yer usti yoki yer osti suvlari”

Suv resurslari

Suv oqimi shakllanuvchi asosiy rayonlar bu tog'li zonalardir, chunki ularga ko'p yog'in tushadi, bug'lanish esa nisbatan kamroq. O'zbekiston daryolarining suv manbai - asosan qor va muzlik suvlaridir. O'zbekistonning, shuningdek O'rta Osiyoning eng yirik daryolari - Amudaryo va Sirdaryodir. Amudaryoning umumiy uzunligi 1437 km, Sirdaryoniki - 2137 km.



DUNYO SUV ZAHIRASI



Nasos orqali sug'orish ishlarini amalga oshirish



Suv fondi yerlar

Suv fondi yerlariga - suv havzalari, daryolar, ko'llar, suv omborlari, gidrotexnik va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek suv havzalarining va boshqa suv ob'ektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar kiradi.



Adabiyotlar:

1. Rahmonov Q.R., Narbayev Sh.K., Muqimov Z.M. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: TIQXMMI, 2019. – 154 b.
2. Варламов А.А., Гальченко С.А. Управление земельными ресурсами. Учебное пособие. М.: ГУЗ, 2005. – 240 с.
3. Чертовицкий А.С., Базаров А.К. Управление землепользованием. Учебное пособие. Т.: ТИИМ, 2010. – 327 с.
4. Selim Kapor, Hari Eswaran, Winfried Blum. Sustainable Land Management. Springer-Verlag Berlin and Heidelberg GmbH & Co. KG. Germany 2016.
5. Babajonov A.R., Rahmonov Q.R, G'ofirov A.J. Yer kadastrı. T.: TIMI, 2008 – 220 b.
6. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”, 2007. – 470 b.
7. O'zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”, T.:“Adolat”, 2015 y.
8. Nigmatov A. Yer huquqi. – T.: “Islom Universiteti”, 2001. – 191 b.
9. O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'grisida Milliy hisobot. T.:“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasi, 2020. – 102 b.
10. <https://moodle.tiame.uz/course/index.php?categoryid=178>